O‘SPIRINLARDA KASBIY MOTIVATSIYA VA SUB’EKTIV AYBDORLIK HISSI O‘RTASIDAGI KORRELYATSION BOG‘LIQLIK

N.O.Mamasadikova
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada raqamli transformatsiya sharoitida o‘spirinlarning kasbiy motivatsiyasi va ularda yuzaga keladigan sub’ektiv aybdorlik hissi o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tashqi va ichki motivatsiyaning aybdorlik hissini namoyon qilishi olimlarning xulosalari bilan izohlangan.

Kalit so‘zlar: kasbiy motivatsiya, sub’ektiv aybdorlik, o‘spirinlik davri, korrelyatsiya, kognitiv dissonans, raqamli transformatsiya, “Men” konsepsiyasi.

Bugungi kunda texnologiyalarning shiddatli o‘zgarishi o‘spirinlik davridagi shaxslar oldiga murakkab talablarni qo‘ymoqda. Kasbiy motivatsiya — bu shaxsning muayyan mehnat faoliyatiga bo‘lgan ichki intilishidir. Biroq, raqamli davrda tanlovlarning ko‘pligi va ijtimoiy bosim natijasida o‘spirinlarda sub’ektiv aybdorlik hissi (shaxsiy imkoniyatlarining ijtimoiy kutuvlarga mos kelmasligi) shakllanmoqda.

O‘spirinlik davrida kasbiy motivatsiya va sub’ektiv aybdorlik hissi o‘rtasidagi bog‘liqlik psixologiyaning murakkab va dolzarb masalalaridan biridir. Kasbiy tanlovida o‘spirin ota-onasi yoki jamiyat oldida o‘zini aybdor his qilsa, bu uning motivatsiyasini so‘ndiradi va kelajakda professional deemotsionalizatsiyaga olib keladi. O‘zbekiston sharoitida, oilaviy qadriyatlar kuchli

bo‘lgan muhitda, farzandning "zamonaviy" kasb tanlashi va ota-onaning "an’anaviy" kutuvlari o‘rtasidagi ziddiyatni korrelyatsion o‘rganish o‘ta muhimdir.

Psixologiyasida kasbiy motivatsiya va aybdorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik E.L.Deci va R.M.Ryan tadqiqotlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Olimlarning izlanishlari “O‘z taqdirini o‘zi belgilash nazariyasi” doirasida asos sifatida o‘rganiladi. Motivatsiya tashqi bo‘lganda, inson harakat qilmasa, unda kuchli introeksiyalangan aybdorlik paydo bo‘ladi. Ya’ni, o‘spirin "shartman" yoki "majburman" degan his bilan o‘qisa, har bir xatosi uchun o‘zini aybdor deb biladi. [1]

Amerikalik taniqli psixolog B.Schwartzning fikricha, raqamli davrdagi kasblarning ko‘pligi o‘spirinda "eng yaxshi variantni o‘tkazib yuborish" qo‘rquvini uyg‘otadi. Bu esa ekzistensial aybdorlikka olib keladi. Natijada ularda "Men noto‘g‘ri kasb tanlab, hayotimni isrof qilyapman",degan fikr bilan yashashiga olib keladi. [2]

Rossiya psixologlari tomonidan kasbiy motivatsiya va shaxs mas’uliyati o‘rtasidagi munosabatlar fundamental tarzda o‘rganilgan. N.S.Pryajnikov ta’kidlaydiki, o‘spirin kasbiy tanlovda o‘z erkinligini his qilmasa, uning motivatsiyasi "himoya mexanizmi"ga aylanadi. U o‘zining muvaffaqiyatsizligida o‘zini ayblaydi, bu esa reaktiv aybdorlikni keltirib chiqaradi.[3]

Kasb tanlash va insonning mehnat faoliyatini o‘rganish bo‘yicha yetakchi olim E.A.Klimov “Kasbiy o‘z-o‘zini anglash psixologiyasi” asarida kasb tanlash jarayonidagi "sub’ektiv to‘siqlar"ni tahlil qilib, aybdorlik hissi o‘spirinning kognitiv xaritasini buzishini va natijada motivatsiyaning pasayishiga (manfiy korrelyatsiya) sabab bo‘lishini ko‘rsatgan.[4]

E.G‘.G‘oziyev o‘spirinlik davridagi motivlar ierarxiyasini tahlil qilib shunday xulosaga kelgan: o‘spirin ota-onasining xohishini o‘zinikidan ustun qo‘yganda, unda "psixologik qaramlik aybdorligi" shakllanadi. Bu his motivatsiyani tushirib yuboradi. [5]

V.M. Karimovaning fikricha, o‘spirin o‘zining raqamli dunyodagi qiziqishlarini an’anaviy ta’lim bilan bog‘lay olmasa, unda sub’ektiv aybdorlik hissi ortib boradi va bu kasbiy oriyentatsiyaga salbiy ta’sir qiladi.[6]

lmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aybdorlik hissi motivatsiyani stimullashi bilan birga tormozlashi ham mumkin:

1.To‘g‘ri korrelyatsiya**.** Tashqi motivatsiya (ota-ona bosimi, moddiy rag‘bat) yuqori bo‘lganda, o‘spirinda muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qo‘rqish natijasida aybdorlik hissi ham mutanosib ravishda ortadi.

2.Teskari korrelyatsiya**.** Ichki motivatsiya (kasbga bo‘lgan sof qiziqish) qanchalik yuqori bo‘lsa, sub’ektiv aybdorlik hissi shunchalik past bo‘ladi.

O‘spirin o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erisha olmasa, unda "shaxsiy aybdorlik" paydo bo‘ladi. Bunday holda jobiy korrelyatsiya namoyon bo‘ladi ya’ni mas’uliyatli o‘spirinlarda aybdorlik hissi ularni ko‘proq mehnat qilishga undaydi.

Kuchli aybdorlik va uyat hissi mavjud o‘spirinlarni yangi kasbiy qadamlar tashlashdan qo‘rqitib qo‘yadi. Mazkur holatda salbiy korrelyatsiya yuzaga keladi. Aybdorlik ortishi bilan faollik va motivatsiya so‘nadi.

O‘spirinlarda kasbiy motivatsiya va aybdorlik hissi uzviy bog‘liqligi raqamli davrda yanada murakkablashgan. Aybdorlik hissi o‘spirinni konstruktiv tanlov qilishdan to‘siq qo‘yuvchi asosiy psixologik determinat hisoblanadi. Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki,faqatgina ichki motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash orqali ushbu salbiy emotsional holatni kamaytirish mumkin. O‘spirin kasbiy tanlovda avtonomiyaga ega bo‘lmasa, uning har bir “xatosi” yoki “to‘xtab qolishi” shaxsiy fojiaga va chuqur sub’ektiv aybdorlikka aylanadi. Bu esa vaqt o‘tishi bilan ruhiy charchoq va depressiyaga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.E.L.Deci, & R.M.Ryan. “Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior”. New York: Plenum Press.1985.,p 113-120.

2.B.Schwartz: "The Paradox of Choice". Harper Perennial. 2004 p. 175-182

3.Н.С.Пряжников.“Профессионалное самоопределение: теория и практика”. Москва: Изд-во "Академия". 2008.502 с

4.Э. А. Климов.”Психология профессионалного самоопределения”. Москва: Изд-во "Академия". 2010. с .112

5.E.G.G‘oziyev**.** Ontogenez psixologiyasi. Toshkent: "Noshir". 2010. 195-b.

6.V.M.Karimova. Ijtimoiy psixologiya. Toshkent: "Yangi asr avlodi". 2018. 142-b.